

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.FIL.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDUGANIYEVA NASIBA AZIZOVNA

INDONEZIYA SEHRLI ERTAKLARI POETIKASI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 821.112.6+821.2.5

КВК: 83.3(6)

A - 13

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of the doctoral dissertation (PhD)
in philology sciences**

| | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Abduganiyeva Nasiba Azizovna Indoneziya sehrli ertaklari poetikasi | 3 |
| Абдуганиева Насиба Азизовна Поэтика волшебных сказок Индонезии | 21 |
| Abduganieva Nasiba Azizovna Poetics of Indonesian fairy tales | 41 |
| E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works | 45 |

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.FIL.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDUGANIYEVA NASIBA AZIZOVNA

INDONEZIYA SEHRLI ERTAKLARI POETIKASI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4107 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuos.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxtarov Timur Asqadovich

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ziyamuxamedov Jasur Tashpulatovich

filologiya fanlari doktori, professor

Turdimov Shomirza Ganiyevich

filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; E-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatilgan.

(2024-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

R.A.Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filol.f.d., dotsent

B.To'xliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida milliy madaniyatning bir qismi bo'lmish xalq og'zaki ijodini o'rganish avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ko'plab qadriyatlar, urf-odatlar, ajdodlar o'g'itlari mohiyatini ochish imkonini beradi. Adabiy merosni har tomonlama tadqiq etish nafaqat muayyan xalqning tarixi va madaniyatini anglash, balki milliy mansubligidan qat'i nazar, barcha xalqlar uchun dolzarb bo'lgan umuminsoniy mavzu va motivlarni yoritish imkonini beradi. Ertaklar, o'z navbatida, xalq og'zaki ijodining eng tarqalgan va ko'p tadqiq etilayotgan janrlaridan biridir. Ertaklarni folklarning bir qismi sifatida o'rganish esa ijtimoiy qadriyatlar va mentalitetdagi o'zgarishlarni kuzatish, shuningdek, folklarning adabiyot, san'at va madaniyatga ta'sirini o'rganish imkonini beradi.

Sharq adabiyoti, xususan folklorni o'rganish tarixiy, madaniy va filologik tadqiqotlarning uzviy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi sharqshunosligining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda jahon va mahalliy sharqshunoslik an'analarni qayta ko'rib chiqishda yuqori malakaviylik va mohirlik, dalillarga oqilona munosabat, tilshunoslik hamda matnshunoslik nuqtayi nazaridan puxta tahlil qilish bilan ajralib turadigan yangicha yondashuv vujudga keldi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan, Indoneziya va Malayziya davlatlari bilan aloqalari tobora kengayib, mustahkamlanib borayotganini ta'kidlash lozim.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari folklorining manbalari – mintaqa madaniyati va an'analarni aks ettiruvchi boy va noyob merosdir. Ular chuqur diniy qarashlar, tilsimot va tabiatning ilohiy qudratini ifodalovchi g'oyalar bilan yo'g'rilgan. Indoneziya sehri ertaklarining genezisi qadimgi davrlarga borib taqaladi, tarixiy voqealar va mif afsonalari haqidagi hikoyalar majoziy unsurlar bilan uyg'unlashgan. Binobarin, xalqning ma'naviy madaniyati va dunyoqarashini o'zida aks ettirgan Indoneziya ertaklari poetikasi va uslubini o'rganish ushbu xalqning o'zligini anglash, badiiy tasavvur va an'analarning shakllanish bosqichlarini o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning "I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini

shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turli xalqlar folklori ko'plab yetakchi olimlar ilmiy izlanishlarining tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Jahon tadqiqotchilari¹ indonez madaniyatining uzviy bo'lagi bo'lmish folklorini, uning o'ziga xosligi va betakrorligini tadqiq etish ishiga salmoqli hissa qo'shishgan.

Indoneziyada folklor hamda xalq madaniyati ko'plab tadqiqotchilar² tomonidan o'rganilgan. Xususan, Djeyms Danandjayaning³ "Folklor Indonesia: Negeri Mitos yang Tetap Hidup" ("Indoneziya folklori: mangu afsonalar mamlakati") asari bilan Indoneziyaning mintaqaviy folklori va xalq urf-odatlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan taniqli olimlardan biri hisoblanadi.

Y.M. Meletinskiy⁴, V.M. Jirmunskiy⁵, V.Y. Propp⁶, A.S. Suxochev⁷, Y.N. Smirnov⁸, V.A. Baxtin⁹, V.G. Anikin¹⁰, D.S. Lixachev¹¹, S.G. Lazutin¹², M.V. Frolova¹³ kabi rus olimlari va boshqalar turli xalqlar folklorini tadqiq etish bilan shug'ullangan.

O'zbek folklorshunosligida ertaklarning tasnifi va poetikasi masalasiga qator tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lib, ular orasida Q.Imomovning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi. Muallif o'zbek xalq ertaklarining eng qadimiy namunalari tasnifi, ularning boshqa nasriy janrlar bilan aloqasi haqida qator ma'lumotlar beradi¹⁴. Bundan tashqari, u ertak poetikasi masalasiga ham to'xtalib o'tadi¹⁵. G.Jalolov¹⁶, T.Mirzayev¹⁷ va M.Jo'rayev¹⁸, B.Sarimsoqov¹⁹, G'Egamberdiyev²⁰ kabilarning asarlari ham xalq og'zaki ijodi tadqiqiga bag'ishlangan.

¹ Hooykaas C. Over Maleische literatur, 2-de druk. Leiden: E.J.Brill, 1947. – 285 p.; Overbeck H. Malay Manuscripts in the Public Libraries in Germany, JMBRAS, 1936, vol. IV, pt.2. – P.233-259.; Margaret Read MacDonald. Indonesian Folktales by Libraries Unlimited 1st, First Edition, Hardcover, 2003. – 168 p.; Teresa De Blécourt. Legends and Myths of the Indonesian Archipelago. The Cultural Significance of Indonesian Folklore. Pustak, Jakarta, 2012. – P. 99-116.

² James Danandjaja Folklor Indonesia: Dongeng dan lain-lain. – Indonesia: Pustaka Jaya, 1982. – 230 p. Joko Suryanto. The Javanese Folktale. Pustak Indonesia, 1991. – 200 p.

³ James Danandjaja. Folklore Indonesia: A Country of Living Myths. – Indonesia: Yayasan Pustaka Obor, 1975. – 224 p.

⁴ Мелетинский Е.М. Герой волшебной сказки. – Москва: Восточная литература, 1958. – 242 с.

⁵ Жирмунский В. М. Народный героический эпос. – Москва: Художественная литература, 1962. – 437 с.

⁶ Пропп В.Я. Морфология сказки. – Москва: Наука, 1969. – 170 с.

⁷ Сухочев А.С. От дастана к роману. – Москва, 1971. – 170 с.

⁸ Смирнов Ю.Н. Славянские эпические традиции. – Москва: Наука, 1974. – 264 с.

⁹ Бахтин В.А. Время в волшебной сказке // Проблемы фольклора. – Москва: Наука, 1975. – С. 29-45.

¹⁰ Аникин В.Г. Особенности стиля, мотивов и сюжета народной сказки // Литературные направления и стили: Сборник статей, посвященный 75-летию проф. Весникова Г.Г. – Москва: МГУ, 1976. – 188 с.

¹¹ Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. – Москва: Наука, 1979. – 360 с.

¹² Лазутин С.Г. Поэтика русского фольклора. – Москва: Высшая школа, 1981. – 228 с.

¹³ Фролова М.В. Фольклор индонезийских островов: архаика и современность. – Москва: Ключ-С, 2022. – 336 с.

¹⁴ Имамов К. Сказочные мотивы в дастанах/ Фозил шоир. – Тошкент: Фан, 1973. – 144 с.

¹⁵ Имамов К. К вопросу об интерпретации идеального героя в сказках и дастанах / Пулкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976. – 138 с.

¹⁶ Джалолов Г. Узбекский народный сказочный эпос. – Тошкент: Фан, 1980. – 270 с.

¹⁷ Мирзаев Т. Ходи Зариф, адабий портрет. – Тошкент: Ф. Фулом, 1967. – 203 б.

¹⁸ Жўраев М. Фольклоршунослик асослари / Ўқув кўлланма. – Тошкент: Фан, 2009. – 44 б.

¹⁹ Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978. – 312 б.

²⁰ Эгамбердиева Г. М. К вопросу изучения в узбекской фольклористике межжанровых взаимоотношений в устном народном творчестве. – Тошкент: Молодой ученый, 2017. – С. 693-696.

O‘zbekiston sharqshunoslari ham Sharq xalqlari folklorini o‘rganish ishiga katta hissa qo‘shishgan. Bu o‘rinda afg‘on²¹, hind²², arab²³, xitoy²⁴, turk²⁵ ertaklari poetikasiga oid tadqiqotlarni ko‘rsatish mumkin.

Jahon adabiyotshunosligida indonez sehrli ertaklari poetikasiga oid qator ilmiy izlanishlar mavjud bo‘lishiga qaramay, o‘zbek sharqshunosligida hozirga qadar ushbu masala yuzasidan tadqiqot olib borilmagan. Xususan, Indoneziya ertaklarining tipologik va milliy o‘ziga xosliklari, shuningdek, badiiy ifoda vositalarining xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining “Sharq mamlakatlari adabiyoti” hamda “Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari” mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Indonez sehrli ertaklarining poetik tizimi, uning tipologik va milliy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Indoneziya xalqlari sehrli ertaklarining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga zamin yaratgan sabab va omillarni aniqlash;

indonez sehrli ertaklarining milliy xususiyatlari va tipologiyasini ochib berish;

indonez sehrli ertaklari poetikasining tarkibiy qismi bo‘lmish syujet tuzilishi va motivlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

indonez sehrli ertaklarida an’anaviy formulalar va stereotipik umumiyliklarni belgilash;

indonez sehrli ertaklaridagi an’anaviy tasvir vositalarni aniqlash va obrazlar tizimidagi o‘xshashlikni yoritish.

Tadqiqotning obykti sifatida “101 Nusantara ertaklari (Indoneziyaning 34 provinsiyasiga oid ertaklar to‘plami) (“101 Cerita Nusantara (Kumpulan dongeng dan cerita rakyat teladan 34 propinsi Indonesia)”²⁶ nomi bilan nasr etilgan Nusantara²⁷ xalqlarining sehrli ertaklari to‘plami tanlangan.

Tadqiqotning predmetini indonez sehrli ertagi, uning tipologik xususiyatlari va milliy o‘ziga xosligi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, lingvopoetik, shuningdek, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

²¹ Маннанов А. Афғон халқ оғзаги ижодиёти / Монография. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2021. – 210 с.

²² Мухибова У. Ҳинд фольклори. Монография. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2021. – 144 б.

²³ Шамусаров Ш. Поэтика и типология арабских сказок. Монография. – Ташкент: “EFFECT-D”, 2019. – 238с.

²⁴ Очилов О. Хитой фольклори. Монография. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2018. – 126 б.

²⁵ Кенжаева П. Турк халқ оғзаки поэтик ижоди (типологик тадқиқот). Монография. – Тошкент: “EFFECT-D”, 2020. – 101 б.

²⁶ 101 Cerita Nusantara (kumpulan dongeng dan cerita rakyat teladan 34 propinsi Indonesia). Diceritakan kembali oleh Nurul Ihsan, Jakarta, 2009. – H. 205.

²⁷ Nusantara so‘zi indonez tilida ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, “nusa” – “orol” va “antara” – “orada”, ya’ni “orada joylashgan orollar” ma’nolarini ifodalaydi. Ushbu termin Indoneziya mustaqillikka erishgunga qadar bo‘lgan hududlarga nisbatan ishlatilgan. Nusantara Indoneziya, Malayziyaning bir qismi, Bruney, Sharqiy Timor va Tailand va Filippinning janubiy qismlari kabi hududlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu tadqiqot ishida hozirgi Indoneziyaning 34ta viloyatida keng tarqalgan Nusantara xalqlarining ertaklarini tahlilga tortilgan. Bugungi kunda ushbu termin mazkur mintaqaning madaniy, tarixiy va geografik birligini bildirish uchun ham qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan Indoneziya folklorining qiyosiy-tipologik baholash natijasida syujet rivojlanishi va qahramonlar harakatidagi rang-baranglik aniqlanganligi dalillangan;

indonez sehrli ertagi poetikasining tipologik xususiyatlari sifatida bir qator motiv (motiv-vaziyat; motiv-nutq; motiv-harakat; motiv-ko'chirish, motiv-tavsif)larni o'z ichiga olgan syujet tuzilishining o'ziga xosligi asoslangan;

indonez sehrli ertaklarining tasviriy vositalari ertak yaratuvchilarning milliy madaniyati, turmush tarzi va an'analari bilan chambarchas bog'liqligi, bu esa Nusantara (Indoneziya) xalqlari sehrli ertaklarining milliy o'ziga xosligini belgilashi isbotlangan;

an'anaviy badiiy tasviriy vositalar hamda indonez sehrli ertagining badiiy tasvir tizimining stereotiplanishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Indoneziya sehrli ertaklarining shakllanishi masalasi xorijiy va mahalliy folklorshunoslik materiallari asosida o'rganilib, Nusantara xalqlari ertaklarining shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi sabab va omillar aniqlangan;

qiyosiy-tipologik tahlil asosida indonez sehrli ertaklarining milliy va tipologik xususiyatlari, ularning an'anaviy tasvir vositalari va obrazlar tizimining andazaviyligi o'rganilgan;

indonez sehrli ertaklarining syujet tuzilishi va motivlarining xususiyatlari ertaklar poetikasining o'ziga xosligini belgilashi to'g'risida xulosalar chiqarilgan, indonez sehrli ertaklaridagi an'anaviy formulalar va stereotip "umumiylik"lar aniqlangan;

tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalari folklorshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, Sharq xalqlari adabiyoti tipologiyasi, tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyotidan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish, shuningdek, Indoneziya adabiyotini o'rganishning barcha bosqichlari uchun manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlangan badiiy manbalarning tadqiqot mavzusiga mosligi, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va lingvopoetik tahlillar asosida nazariy xulosalar chiqarilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati o'rta asrlar Indoneziya adabiyotini o'rganish, xususan, Indoneziya xalqlari sehrli ertaklarini tadqiq etishdagi nazariy xulosa va umumlashmalarning muhimligi hamda mavjud ma'lumotlarning yangi ilmiy-nazariy tavsiyalar asosida boyitilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Indoneziya sehrli ertaklari poetikasi, tipologik va milliy xususiyatlariga oid amaliy va tahliliy materiallardan "O'rganilayotgan til mamlakati adabiyoti", "Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi" kabi fanlarni o'qitish, filologiya yo'nalishi bakalavriyat va magistratura bosqichlarida maxsus kurs hamda seminarlar tashkil etish, darslik va qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Indoneziya sehrli ertaklari poetikasi, ularning tipologik va milliy xususiyatlari tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan Indoneziya folklorining qiyosiy-tipologik baholash natijasida syujet rivojlanishi va qahramonlar harakatidagi rang-baranglik aniqlanganligi dalillanganligi yuzasidan takliflar "Buyuk Ipak yo'li mintaqasi xalqlari folklorining tipologiyasi, milliy o'ziga xosligi va yozma adabiyot rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida OT-FT-67 "Ipak yo'li xalqlari folklori (janrlari va tipologiya masalalari)" nomli monografiyasining "Indonez folklori" bo'limini yozishda foydalanilgan (TDSHning 2024-yil 12-iyundagi 01-04-01/1326-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilishi indonez-evropa folklori kontekstida ertaklarning tipologik va milliy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish uchun asos bo'lgan;

indonez sehrli ertaklarining tasviriy vositalari ertak yaratuvchilarning milliy madaniyati, turmush tarzi va an'analari bilan chambarchas bog'liqligi, bu esa Nusantara (Indoneziya) xalqlari sehrli ertaklarining milliy o'ziga xosligini belgilashi isbotlanganligi hamda Nusantara xalqlari folklorining shakllanishi va rivojlanishi, hind, xitoy va arab adabiyotining Indoneziya folkloriga ta'siri hamda ertaklarning poetik xususiyatlariga oid amaliy natijalar va materiallardan "Filologiya va tillarni o'qitish (indonez tili)" yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabalari uchun "Indoneziya folklori" o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-son buyrug'i, 166-208-son guvohnoma). Ilmiy va amaliy natijalar mahalliy sharqshunoslikda Indoneziya adabiyoti yodgorliklarini o'rganish sohasidagi bo'shliqni to'ldirishga asos bo'lgan;

an'anaviy badiiy tasviriy vositalar hamda indonez sehrli ertagining badiiy tasvir tizimining stereotiplanishi ochib berilgan Indoneziya ertaklari poetikasi, ularning belgilar tizimi, syujetlari va tasviriy vositalarini yoritishga bag'ishlanganligi yuzasidan takliflar tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM tarkibidagi "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirish" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Jahon adabiyoti" va "Adabiy jarayon" radiodasturlar senariysida samarali foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DUKning 2022-yil 13-iyundagi 04-36-893-son ma'lumotnomasi). Bu adabiyot ixlosmandlari, o'zbek kitobxonlariga yangi ilmiy ma'lumotlar olish, radiotinglovchilarga xorijiy adabiyot namunalari bilan tanishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari jami 7 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, ulardan 2 tasi monografiya (1 tasi hammualliflikda), O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, jumladan, shu maqomdagi xalqaro jurnallarda 1 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti tavsiflangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Madaniy-tarixiy vaziyat va indonez sehrli ertagining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar”** deb nomlanib, unda Janubi-Sharqiy Osiyo folklorining kelib chiqishi hamda indonez ertaklarining genezisi va uning milliy xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Janubi-Sharqiy Osiyo Sharqning eng qadimiy madaniy mintaqalaridan biridir. Indoneziya an’anaviy adabiyoti chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, boy folklor manbalari va oroldagi ko‘plab xalqlarning noyob yozma merosini o‘zida mujassam etadi, bu esa, o‘z navbatida, bu yerdagi deyarli barcha xalqlarning adabiy yaqinligiga sabab bo‘lgan. Indoneziyadagi madaniy va tarixiy muhit ertaklarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Etnik guruhlarining boyligi, an’alarining xilma-xilligi o‘ziga xos afsona va rivoyatlarning paydo bo‘lishiga xizmat qilgan. Qadimgi hind va buddaviylikka oid dostonlar Indoneziya folkloriga katta ta’sir ko‘rsatgan, xususan, Yava va Bali orollaridagi “vayang” (qadimiy teart)²⁸ va raqs dramasini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, islom madaniyati an’alari ta’siri unchali kuzatilmasa-da, ertaklarning umumiy ruhini belgilab beruvchi tub indonez va hind-buddaviy motivlarining uyg‘unligi yaqqol sezilib turadi.

“Ramayana” va “Mahabharat” kabi qadimgi hind dostonlari o‘ziga xos indoneziyacha burilishlar va talqinga ega alohida versiyalarga aylandi, ular ko‘pincha hindcha nusxalardan farq qiladi. Jatakalar Mendut, Borobudur va Sajivan kabi qadimiy Yava “kandi” (ibodatxona)larining barelyeflarida²⁹ tasviriy hikoya shaklida uchraydi.

Hindiston buddaviylik mifologiyasi orqali indonez ertaklariga ta’sir ko‘rsatgan. Vishnu, Shiva va Lakshmi kabi ma’bud va ma’budalar mahalliy urf-odat va diniy e’tiqodlarga moslashtirilgan “Dongeng Bunga yang Menurunkan Para Raja” (Rojani ag‘dargan gul), “Dongeng Indraputa dan Naga” (Indraputra va ajdaho) kabi indonez sehrli ertaklarida o‘z aksini topgan. Ushbu ma’budlar syujetga ta’sir ko‘rastib, ertaklarning bosh qahramonlariga aylangan. Shuningdek, indonez ertaklariga Hindistonning madaniy ta’sirini “Dongeng Cinta Terlarang” (Taqiqlangan sevgi), “Dongeng Si Raja” (Roja Si), “Putri Merak” (Malika va tovus), “Dongeng Si Raja Tidur Jakarta” (Uxlayotgan qirol), “Dongeng Emas Raja” (Oltin qirol), “Dongeng Dua bunga teratai” (Ikki nilufar) ertaklari misolida ko‘rish mumkin. Ularda indonez madaniyating turli jihatlari, an’anaviy musiqa, raqslar va tasviriy san’ati aks etgan. “Basmala dan Rafijah” (Basmala va Rafija) ertagi qahramonlari liboslarda rang-barang batik naqsh elementlarining asosi hind to‘qimachiligiga xos naqsh va motivlariga borib taqaladi.

²⁸ Vayang - Java, Bali va Maduraning an’anaviy soyali qo‘g‘irchoq teatri.

²⁹ Barelyef – tasvir fon yassiligidan hajmining yarmidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda turtib chiqqan relyefli haykal turi.

Indonez ertaklariga Xitoyning ta'siri turli shakllarda, motiv va ramzlardan tortib, umumiy syujet chizgilarigacha namoyon bo'ladi. "Ajdah" va "qaqnus" kabi xitoy mifologik personajlari indonez ertaklarida ham uchraydi. "Ajdah" obrazi "Naga Putri" (Ajdaholar malikasi), "Dongeng Naga Sakti" (Ajdah Sakti), "Dongeng Ular Daung dan Si Bungsu" (Ilon Daung Si Bungsu) kabi ertaklarda yaqqol namoyon bo'ladi, ulardagi syujetlarni to'ldiradi va boyitadi. "Dongeng Suimin" (Syuimin haqidagi ertak)da uchraydigan xitoycha ramzlar – milliy kiyim elementlari, milliy maqomdagi hayvonlar, xitoycha nomlar indonez ertaklariga yanada chuqur mazmun bag'ishlab, bayonchilik tajribasini boyitadi.

Ertaklarga badihago'ylik asosida to'rtlik-pantunlar, ya'ni Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlariga xos, rus laparlari (chastushka) ni eslatadigan qo'shiq-parallelizmlarning kiritilishi indonez an'alarining namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi. Pantun poetikasining ta'sirini mo'jaz sahnalardan biri – bosh qahramon Indraputra qallig'ini qidiradigan "Dongeng Indraputa dan Naga" (Indraputa va ajdah) ertagida ko'rish mumkin. Ushbu pantun ertakka sirlilik va romantiklik bag'ishlaydi.

"Bawang Putih Bawang Merah" (Oq piyoz va Qizil piyoz), "Dongeng Cekele Waneng Pati" (Chekele Vaneng Pati), "Dongeng Peristiwa Cadas Pangeran" (Maftunkor shahzoda Chadas Pangeran), "Lutung Kasarung" (Lutung Kasarung), "Dongeng Mentiko" (Sehrgar Mentiko), "Dongeng Mula Batu Raden" (Mulla Batu Raden) kabi indonez sehrli ertaklariga g'ayritabiiy mavjudot (rakshas, dev, pari)lar kiritilganligi, tabiat va axloqiy qadriyatlarga urg'u berilganligi tufayli milliy o'ziga xoslik kasb etgan.

Shu tariqa, indonez ertaklarida turli dinlarga xos unsurlar o'z tajassumini topgan. Indoneziya aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakat sifatidagi mavqeyiga qaramay, o'tmishi, tashqi ta'sirlar o'laroq turli diniy e'tiqodlar kesishgan mamlakat ekanligidan faxrlanadi. Bu diniy xilma-xillik folklorda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki indonez xalq ertaklarida ko'pincha hinduilik "Batarakala dan Ratu Anggeni" (Batara-Kala i Ratu-Anggeyni), buddaviylik "Dongeng Kong Hi dan Buhi" (Kong Hi va Buxi), islom dini "Dongeng Mula Batu Raden" (Mulla Batu Raden) va mahalliy qabila dinlarining qahramonlari esga olinadi. Mazkur ertaklar turli dinlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi va indoneziyaliklarga o'z madaniy merosini saqlab qolgan holda turli dinlarni tushunish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida "101 Cerita Nusantara Cerita dan dongeng» (101 Nusantara ertaklari) to'plamidagi ertaklar quyidagi tasnif asosida tahlil qilindi.

Sehrli ertaklar. Ushbu turkum mazkur to'plamdagi eng katta qismini tashkil qiladi. U sehrgarlar, parilar, sehrangan malikalar va sayohatga chiqayotgan yoki topshiriqlarni bajarayotgan qahramonlar haqidagi 58 ta ertakni o'z ichiga oladi. Masalan, "Dongeng Cinta Terlarang" (Taqiqlangan sevgi), "Bawang Putih Bawang Merah" (Qizil piyoz va Oq piyoz), "Dongeng Bunga yang Menurunkan Para Raja", (Rajani ag'dargan gul), "Dongeng Si Raja" (Raja Si), "Putri Tadambalik" (Malika Tadambalik) va boshqalar.

Hayvonlar haqida ertaklar. Ushbu turkumda bosh qahramonlari hayvonlar bo'lgan ertaklar kiradi. Bu turdagi ertaklar pandnoma bo'lib, indonez versiyasida

asosan kanchil³⁰, to'ng'iz, maymun va ilon kabi jonzotlar ishtirok etadi. Ushbu to'plamda 28 ta ertak aniqlangan: "Dongeng Si Keong Emas" (Oltin shilliqurt), "Dongeng Ular Daung" (Daung iloni), "Antara Hilur dan Hilir Sungai" (Yuqori va quyi daryolar o'rtasida), "Hadiah dari Babi Hutan" (O'rmon to'ng'izidan sovg'a), "Kura-kura dan monet" (Toshbaqa va maymun), "Kerbau dan Kancil" (Buqa va kanchil), "Kancil dan 33 ekor buaya" (Kanchil va 33 timsoh) va boshqalar.

Maishiy ertaklar kundalik hayot voqealariga asoslanadi. Uning qahramonlari adolat uchun kurashadi va zukkolik, epchillik yoki topqirlik yordamida o'z maqsadiga erishadi, mehribonligi va halolligi uchun mukofot oladi. Tadqiqot davomida ushbu to'plamda mazkur turdagi 15 ta ertak aniqlandi: "Bagaimana orang bodoh menjadi wazir" (Qanday qilib ahmoq vazir bo'ldi), "Cendawan Emas" (Oltin qo'ziqorin), "Mencari Raja Tidur" (Uxlayotgan shohni izlab), "Sangar Emas" (Oltin qafas), "Dongeng Gadis nakal" (Yaramas qiz), "Anak laki-laki dan Raja" (Bola va Roja) va boshqalar.

Tadqiqotning "**Indoneziya sehrli ertaklarida badiiy olam o'ziga xosligi**" deb nomlangan bobi kompozitsiya xususiyatlari va tipik syujet, shuningdek, Indoneziya sehrli ertaklariga xos xususiyat sifatida bayon qilish hamda milliy olam manzarasining makon va zamonda aks etish masalasini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Indonez sehrli ertagi ma'lum bir mazmundagi tipik motivlar majmuasiga asoslanadi. B.N.Putilov³¹ tomonidan taklif qilingan tipologik tasnif: 1) motiv-vaziyat; 2) motiv-nutq; 3) motiv-harakat; 4) motiv-ko'chib o'tish (makonni o'zgartirish); 5) motiv-tavsif kabilarni batafsil tahlil qilish indonez eposining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Motiv-harakat indonez ertaklarida faqat yakkama-yakka olishuv, kurash sifatida namoyon bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, faqat dastlabki uchta motiv: 1) motiv-vaziyat; 2) motiv-nutq; 3) motiv-harakat haqiqatda syujetni hosil qiluvchi hisoblanadi, qolganlari konstruktiv rol o'ynamaydi. Indonezi ertagidagi (qisqa yoki kengaytirilgan shaklda) tipik motivlar qonuniyatlarini tahlil qilish uning dunyodagi boshqa xalqlar eposi bilan tipologik mushtarakligini tasdiqlashi lozim.

Motiv-vaziyat. Syujetning muqim pallalarini tartibga soluvchi ushbu motivning davomiyligi, ya'ni shaklining to'liqligi yoki qisqaligi bayondagi joylashuviga bog'liq. Syujet ekspozitsiyasida motiv-vaziyat ko'pincha to'liq shaklda namoyon bo'ladi.

Setelah **maharaja menjadi raja**, istrinya Devi melahirkan anak³².

Vaqt o'tib, Raja taxtga muqim o'rnashgach, o'sha baxtli kunlardan birida rafiqasi Devi ko'zi yoridi.

Indonez ertagida "**motiv-vaziyat**" vazifasi xilma-xil va nihoyatda muhim: birinchidan, bu motiv bayonga personajlarni kiritadi va ular o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi.

Setelah Raja dikatakan murid-muridnya pergi untuk bertemu dan bertanya: **Siapa Itu**³³?

³⁰ Kanchil – bug'ular oilasiga mansub qo'shtuyoqli sutemizuvchilar turkumi. Indoneziya va Bali orollari o'rmonlarida juda mashhur jonivorlar.

³¹ Путилов Б.Н. Мотив как сюжетообразующий элемент. Типологические исследования по фольклору. Сб. статей памяти В.Я.Проппа. – Москва: Наука, 1975. – С. 141-155.

³² Dongeng Cinta Terlarang. – H. 57 (Taqiqlangan sevgi haqidagi ertak. – B. 57).

³³ Dongeng Si Raja. – H. 25. (Si Raja haqidagi ertak. – B. 25).

Raja shu gapni aytishi bilanoq shogirdlari unga peshvoz chiqishdi, va biroz yurib bir-birlaridan “U kim?” deb so‘rashdi.

“**Motiv-ko‘chib o‘tish**”. Indonez ertaklarida boshqa xalqlar ertakchiligida bo‘lgani singari, motiv-nutqdan so‘ng motiv-ko‘chib o‘tish keladi.

Segitu Para Raja melihat potret Dewi, **dia segera pergi** mencairnya³⁴.

Para Roja Deviyning suratini ko‘rishi bilanoq darhol uni qidirishga tushadi.

“**Motiv-harakat**”. Qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar va aloqa ularning harakatlari va kundalik faoliyatida ifodalanadi. Tipik motiv-harakat bir xil namoyon bo‘lavermaydi, u syujet harakatini (motiv-epizod) ham, tayyorlab boruvchi, ekspozitsiyaviy “mikroharakatlarni” ham qamrab olishi mumkin.

–Oh anakku! Duduklah di sampingku dan katakan: kenapa kamu tidak makan dan minum?

–Jangan sedih, oh ibu dan ayah, biarkan budakmu **pergi mencari** orang yang wajahnya lihat dalam mimpi. Begitu aku menemukannya, aku akan segera kembali dan jatuh di kakimu³⁵.

–Ey, bolam! Yonimga o‘tir, ayt-chi: nega hech narsa yemay qo‘yding?

–Ona, dada, xafa bo‘lmang, o‘g‘lingizga tushida ko‘rgan qizni **izlab topishga ruxsat bering**. Uni topishim bilanoq, qaytib kelaman.

Indonez ertaklarining syujet tuzilishini tahlil qilishda V.Y.Proppning “Ertak morfologiyasi”da taklif etilgan ertak syujeti funksiyalari tizimini qo‘llash mumkin. Ammo hozirgi tadqiqotchilar V.Y.Propp formulasidan o‘zgarmagan holda foydalanishmaydi, balki uni u yoki bu tarzda, asosan soddalashtirib o‘zgartirishadi yoki muallifning faqat umumiy g‘oyalarni olishadi.

Indonez ertaklaridagi asosiy syujet elementlarini ko‘rib chiqishda (101 Cerita Nusantara (Kumpulan dongeng dan cerita rakyat teladan 34 propinsi Indonesia) ertaklar to‘plami asosida ular strukturaviy funksiyalariga ko‘ra tizimlashtirildi. V.Y.Propp formulasining talqiniga ko‘ra 31 funksiyadan 19 ta funksiyasi mos kelgani aniqlandi.

“Putri Tadambalik” (Malika Tadambalik), “Yatim piatu Dau” (Yetim Dau), “Dongeng Cinta Terlarang” (Taqiqlangan sevgi) ertaklarini tahlil qilish asosida umumiy (universal) hikoya tuzilmalarining 19 ta formulasi (muvozanatning buzilishi bosqichi; qahramonni qo‘yib yuborish; qahramonni yangi joyga ko‘chirish; qiyinchiliklarni bartaraf etish; sehrli buyumni berish; qahramonning qaytishi; qahramonni ta‘qib qilish; yangi qahramonni tanishtirish; yovuz niyatli odamning harakati; sehrli buyumning yordami, yovuz niyatli odamni yo‘q qilish; yovuz niyatli odamni quvish; qahramon tomonidan topshiriqni bajarish; qahramon ayolni sinovdan o‘tkazish; uyga qaytish yoki bevosita uyga kelish; ziyofat va to‘y; oila birdamligini tiklash; yakuniy formula)ni aniqlash va Indoneziya arxipelagining madaniy va ijtimoiy kontekstiga moslashtirilgan ertak asosiy funksional elementlarining modifikatsiyalarini belgilash imkonini berdi.

Syujet rivojlanishining umumiy holati o‘rganilgandan so‘ng, ertaklar syujetidagi qahramonlar faoliyatining tabiati nuqtayi nazaridan taqdim etiladi. Shu maqsadda

³⁴ Dongeng Bunga yang Menurunkan Para Raja. – H. 124. (Rajani ag‘dargan gul haqidagi ertak. – B. 124).

³⁵ Cerita dan dongeng Indraputa dan Naga. – H. 66. (Indraputra va Ajdaho haqidagi ertak. – B. 66).

indonez ertaklariga xos bo'lgan va syujetlar rivoji uchun zarur bo'lgan qahramonlar faoliyatining bir guruhi aniqlandi:

- dushmandan qasos olish;

Indonez ertaklarida dushmandan qasos olish ko'pincha harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida "Dongeng Candra Kirana"³⁶ (Malika sandra Kirani) ertagini keltirish mumkin.

Bu ikki opa-singil Sandra Kirani va Galuru Kirani haqidagi ertak bo'lib, unda Galuruning singlisiga bo'lgan hasadi va g'azabi to'g'risida hikoya qilinadi. Natijada, u singlisini sevgilisidan ajratish va uning o'rmini egallash uchun yovuz jodugarga aylanadi.

Shahzoda Panji azob-uqubatlari va ma'shuqasiga nisbatan bo'lgan adolatsizlik uchun qasos olish istagida yovuz sehrigarga qarshi kurashishga qaror qiladi. Bunda qasos qahramon faoliyati bo'lib, u nizoni hal etish va adolatni tiklashga xizmat qiladi.

Qahramon raqibga qarshi turish uchun kuch to'playdigan vaziyatda qasos syujetdagi burilish nuqtasi bo'lib, natijada yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi, masalan:

- vatan ozod qilinadi;
- yo'qolgan farovonlik tiklanadi;
- g'ayritabiiy yovuz maxluq bilan jang;
- malikani asir olganlar – jin, rakshasa, devdan ozod qilish.

Qahramonlar faoliyatining xilma-xilligi va ularning syujet rivojida ahamiyatiga misol sifatida "Dongeng Si Raja"³⁷ (Si Raja) ertagini keltirish mumkin. Unda yovuz jin tomonidan o'g'irlab ketilgan qalig'i, malikasini izlashga chiqqan shahzoda haqida hikoya qilinadi. Syujet shahzoda o'z sevgilisi o'g'irlab ketilganidan xabar topib, uni qutqarishga qaror qilishidan boshlanadi. U bir qator sinovlardan o'tib, tajriba orttirmaguncha, vazifasini uddalay olmaydi. Safari davomida u turli jonzotlarni uchratadi, yirtqich hayvonlar bilan kurashadi va tilsimli to'siqlarni yengib o'tadi.

Ertakning kulminatsion nuqtasi tajribali va qat'iyatga to'la shahzoda olgan bilim hamda qudrat beruvchi buyumlardan foydalanib, jinga qarshi kurashishida o'z ifodasini topadi. Jinni mag'lub etib, shahzoda malikani ozod qiladi va ular birgalikda uylariga qaytib kelishadi, u yerda zolimdan qutgarilgan minntador xalq farovonlikning tiklanishidan xursand bo'lib, qahramonni kutib oladi.

- tarki dunyochilik (zohidlik) va muqaddas guru (avliyo)dan sehr o'rganish;
- bemor (roja)ni davolash, noyob dori (betel, mango)ni izlab topish;
- kimgadir noyob buyumni topib berish;
- sehrli qurol yoki tumorni qo'lga kiritish.

Indonez xalq ertaklaridagi qahramon sehrgarlikni o'rganish maqsadida ziyoli, tajribali o'qituvchi yoki guruni topish uchun tarkidunyo yoki sayohat qiladigan motiv ko'p uchraydi. Misol uchun, "Lutung Kasarung"³⁸ (Lutung Kasarung) ertagida bosh qahramon o'rmonga borib, kelgusida unga sinovlarda yordam beradigan sehrgarlik bilim va kuchlarini beradigan darveshni uchratadi. Ushbu ertakda xavfli joylarga borish yoki kasallikni davolash uchun zarur bo'lgan noyob giyohlarni topish uchun

³⁶ Dongeng Candra Kirana. – H. 135 (Malika sandra Kirani haqidagi ertak. – B. 135).

³⁷ Dongeng Si Raja. – H. 203 (Si Raja haqidagi ertak. – B. 203).

³⁸ Lutung Kasarung. – H. 47 (Lutung Kasarung. – B. 203).

mashaqqatli sayohatlarni amalga oshirish motivi ham mavjud. Bu holatda, bosh qahramon Lutung shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘lgan sehrli, ajoyib mango mevasini qidirish uchun sayohatga chiqadi.

- malikaning qallic‘i bilan jang qilish;
- qallic‘i yoki bo‘ljak qaynota bilan sehrgarlik mahorati bo‘yicha musobaqalashish.

Indoneziya sehrli ertaklarida sehr-jodu, malika qalbi va muhabbati uchun kurash, hayot yo‘lida turli sinovlardan o‘tish kabi unsurlar ko‘p. “[Dongeng Perestiwa Cadas Pangeran]”³⁹ (Maftunkor shahzoda Chadas Pangeran) ertagida dono podshoh o‘zining go‘zal, ammo ayyor sehrgar qiziga munosib umr yo‘ldosh qidiradi. Podsho nomzod sehrgarlikda qizidan ustun bo‘lish kerakligini aytadi.

Bosh qahramonning sanab o‘tilgan barcha faoliyat turlari asosiy funksiyalarda namoyon bo‘ladi: sehrli vositani qo‘lga kiritish uchun sovg‘a (hadya) qiluvchidan so‘rab olish, dushman bilan kurashish va uning ustidan g‘alaba qozonish, muammo yoki yetishmovchilikni bartaraf etish.

Ushbu ro‘yxatda jo‘nab ketish va to‘y funksiyalariga mos keladigan harakatlar ko‘rsatkichlari mavjud emas, chunki yuqorida aytib o‘tilganidek, sayohat va keyingi nikoh motivlari indonez ertaklari uchun invariantlik kasb etadi, ya‘ni V. Proppning funksiyalar tizimiga kirmaydi.

Indonez sehrli ertagining tahlili “umumiy” an’anaviy elementlarni aniqlashga imkon berdi. Bu quyidagi formulalarda kuzatiladi:

- *mo‘jizaviy tug‘ilish.*

Indonez ertaklarida bosh qahramon g‘ayrioddiy sharoitlarda tug‘iladi, masalan, sehrli guldari tug‘iladi yoki sehrli o‘rmondan topilib olinadi. “Bawang Putih Bawang Merah” (Oq piyoz va Qizil piyoz) ertagida Bavang Merax qizil piyozdan, Bavang Putix oq piyozdan tug‘iladi. Qahramonlarning g‘ayrioddiy tug‘ilishi ularni oddiy odamlardan ajratibgina qolmay, balki hayotiy yo‘llarini ham belgilab beradi. Bavang Merax rashkchi va g‘azabkor, Bavang Putix esa mehribon va samimiy ayol bo‘lib o‘sadi.

- *qahramonning tez o‘shishi;*
- *otning g‘ayrioddiy xususiyatlari (olov chiqarishi);*

Bu formulalarni “Dongeng Indraputra dan Naga” (Indraputra va Ajdahoh) ertagida kuzatish mumkin. Ertakdagi bosh qahramon Indraputra 7 yoshidayoq muqaddas Qur‘onni yod oladi. Uning g‘ayritabiiy xislatga ega Kuda Lumping ismli g‘aroyib oti bor. Ot burnidan olov purkab, atrofdagilarni hayratda qoldirardi.

- *dushman o‘g‘irlagan buyumni olib ketadigan joy (buyum joylashgan joy);*
- *izlashga borishga buyruq;*
- *malikaning dashnomi;*
- *malika go‘zalligi;*

Indonez ertaklaridagi ushbu formulalar bayon jozibasi va maftunkorligini oshiradi. Ushbu formula ko‘pincha sehrli ertaklardagi malikalarning tengi yo‘q husnini tasvirlashda foydalaniladi. Masalan, “Putri Naga” (Ajdaholar malikasi), “Dongeng Cinta terlarang” (Taqiqlangan sevgi), ‘Putri Merak’ (Malika Merak), “Dongeng Si

³⁹ Dongeng Perestiwa Cadas Pangeran. – H. 35. (Go‘zal shahzoda Chadas Pangeran haiqdagi ertak. – B. 203).

Raja” (Raja Si), “Putri Tadambalik” (Malika Tadambalik) ertaklarida malikalarning tashqi qiyofasi tasvirlanib, ularning tiniq badani, maftunkor ko‘zlari va sarv qomatiga alohida e’tibor qaratiladi.

- *sayohat (jang) davomiyligi;*
- *qahramon va hadya qiluvchi o‘rtasidagi suhbat;*
- *maharoja (jin) saroyining tavsifi;*
- *sehrli buyumlar (qilich, tumor) va ulardan foydalanish.*

“Dongeng Raksasa Pemakan Mamusia” (Odamxo‘r Rakshasa) ertagida saroy sof oltindan qurilgani, devolari yaltirab turgani va yo‘laklarida g‘aroyib hayvnlarni kezib yurganligi tasvirlangan. Jinlar ulkan kuchkatta qudrat va bilimga ega bo‘lgan g‘ayritabiiy mavjudotlar sifatida tasvirlangan, bosh qahramon Roja Sakti ularni mag‘lub etib, saroydan qochib ketishi uchun o‘z aql-idrokini ishga solishi kerak.

Shu tariqa, indonezi sehrli ertaklari qahramonlari syujet faoliyatining umumiy yo‘nalishi ertaklar, xususan, rus sehrli ertagi qahramonlari faoliyatiga asosan mos keladi. Bundan tashqari, indonez sehrli ertaklari qahramonlarining maqsad va vazifalari xilma-xil bo‘lib, syujet rivoji davomida qahramon nafaqat o‘ziga yerdagi qalliq (yoki indonez ertaklariga xos bo‘lgan bir nechta samoviy mavjudot – pari, devlar)ni izlaydi, balki bir qator an’anaviy qahramonona xatti-harakatni amalga oshiradi: sehrli qurolni qo‘lga kiritish, o‘z vatanini ozod qilish va nihoyat, yo‘lida uchratgan turli kuchli dushmanlar bilan jang qilish. Ushbu xususiyatlarning mavjudligi indonez sehrli ertaklari syujetlarining tipologiyasi haqida so‘z yuritishga asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi – **“Indonez sehrli ertaklarining an’anaviy formulalari va tasviriy vositalari”** deb nomlanib, indonez sehrli ertaklaridagi stereotipik formulalar (initsial, medial, final) va an’anaviy obrazli vositalar tahliliga bog‘ishlangan.

